



**Behruz Toshtemirov**

# **MEN IZLAGAN IJODKORLAR**

**Россия**

**Москва - 2024**



**Тоштемиров Б.** «Men izlagan ijodkorlar». Творческая коллекция. Образование издательство порталъ. – Москва: Издательство «Магистр», 2024. – 112 с.

Творческие работы творческой молодежи Узбекистана издаются в сотрудничестве. Эта книга, изданная на узбекском языке, содержит стихи, рассказы и научные статьи. Читая их, мы можем увидеть примеры блестящего творчества.

Например, можно сказать, что в Узбекистане много творческих людей. Мы думаем, что изданный творческий сборник послужит дальнейшему восстановлению сотрудничества художников двух стран. В этом творческом сборнике вы сможете прочитать научные статьи, рассказы и стихи на узбекском языке в сотрудничестве с Тоштемиров Бехруз!

**ISBN: 9781446197776**

©Тоштемиров Б., 2024

©Художественные альманах, 2024

©Издательство “Магистр”, 2024



**Behruz TOSHTEMIROV**

"Faol tadqiqotchi" ko'krak nishon sohibi.

"Vatan qadri" va "Место театра в жизни" kitoblar muallifi.

"Kuz yog'dusi" ijodiy to'plam muallifi.

She'rlari, ilmiy va badiiy maqolalari tuman, viloyat, Respublika hamda Xalqaro gazeta, jurnallarida muztazam nashr qilinadi.



### **Ezgulik madhi**

Bola ko'nglin sindirar,  
Yovuz qora qarg'alar.  
Ular qachon insofli,  
Adolatli bo'larlar.

Agar mehr ko'rmasa,  
Gul kabi so'lar bola.  
Tog'larning quchog'ida,  
Ulg'ayadi gul lola.

Yovuzlik bor makonda,  
Bolajonlar o'smaydi.  
Quyosh ko'kka chiqmagay,  
Uni bulut to'sgaydir.

Kuch yetguncha kurashing,  
Ezgulikning yo'lida,  
Barcha imkoniyatlar,  
Biz yoshlarning qo'lida.



**O‘tmishi tarixi boy,**  
Yashamoqlik o‘zi baxt.  
Ota-ona yonimizda,  
Ulg‘ayamiz Vatan bag‘rida

Ezgulikka xizmat qiling,  
Yovuzliklar yo'qolsin.  
Halol yashang, izimizdan,  
Yaxshi degan nom qolsin.



**Muhabbat Mahmudova**

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 2-Umumta'lim maktabining ona-tili adabiyot o'qituvchisi.

"Kuz yog'dusi" to'plamda she'rlari chop qilingan.



## **Sezmadim**

Qadaming ostida yanchilib,  
Tuproq bo‘lib qoldim sezmadim.  
Izingga aylanib qoldima biroq,  
Oyog‘ing ostiga bir bor boqmading.

Osmonim bo‘l dedim sen osmon bo‘ling,  
Osmon ekanman deb quvonchga to‘lding.  
Zamin yuzida kezdinggu kuldung,  
Zamin bo‘lay desam zomin deb bilding.

Biroq samo va zamin barobar,  
Hayotimizga birdayin darkor.  
Yolg‘on hayotdan ketar chog‘imiz,  
Jismimizga biri, biri ruhga yor.



## **Bahor**

Bahorning iliq beg‘ubor tongi,  
Bir nafis tuyg‘uni baxsh etar dilga.  
Bir ajib tuyg‘uki qalamin ojiz,  
Dilinda borini aytolmay tilda.  
Fusunkor nafasi tekkan yer yashnar,  
Go‘yoki qaytadan barq urar bashar.  
Tarifi bilan ko‘ngil yarashar,  
Kirib kelganida go‘zal gul bahor.

Tashrifing muborak fasli kelinchak,  
Borliqni bezar har yon boycbechak.  
Butun tabiat liboslanadi,  
Ko‘ygan kiyimi bo‘lar gulchechak.

Borliq jo‘nlanib gullarga to‘ldi,  
Atrof yam-yashil gilamdek bo‘ldi.  
Senga vujudlar edi intizor,  
Kelganing yaxshi bo‘ldi navbahor.





**Мўтабар Раимова Тахировна**

(Эркин ижодкор)

Қорақолпоғистон Республикаси Эллиққаъла туман 11-ММТ  
тарбиячиси



## **Фарзандларимга**

Кетиб қолсам бехос хаётдан,  
Мени ёзган шеъримдан изланг.  
Ғамлар еган дардманд онамни,  
Хеч ким билмас шойир деб эсланг.

Оғриқ эзар тунлари нетай,  
Чидаб зўрға оларман нафас.  
Аллох билар мендан ўтганин,  
Дард солмоқда умримга қафас.

Кимга эриш бу айтган сўзим,  
Битгим келди тўрт мисра бир шеър.  
Ахир бу жон нетай омонат,  
Кўзи очдир тўймас қаро ер.

Дарддан куйган хаста жонимни,  
Қайвақт билмам қайтариб олар.  
Болам сизга мол мулким эмас ,  
Фақат ёзган шеърларим қолар.

Эслаб юринг ўқиб дил сўзим,  
Мўъжизамсиз сиз дилбандларим.  
Ёздим юрак жонимни қўшиб,  
Қувончим гоҳ кетмас дардларим.  
Кирсангиз хар ижод йўлига,  
Йўли узоқ бағри бўлар кенг.



Кимсан деса бирор бир одам,  
Мўътабарнинг фарзандиман денг.

Хеч ким билмас танимас асло,  
Лек сизларга мангу эсталик.  
Улуғвормас шундай шеърларим,  
Дард кўшилган оддий тўрталиқ.

\*\*\*

Енголмас шойирни хаёт хеч қачон ,  
Бардошни ихомла чархлаб боради.  
Шу ғамлар ила у шойир аслида,  
Юракга қафасдек ғамни солади.

Вафони калти бўлар кўлида,  
Уни севмоқ асли мушкулдир гоҳо.  
Бевафо йўлида учраган махал,  
Қочиб кетолмайди шеъридан асло .

Тақдир хам базида келолмайди бас,  
Қалами қилич қалбидир қалқон.  
Ғамларин қоғозга кўйар кишанлаб ,  
Енголмас шойирни хаёт хеч қачон.

\*\*\*

Сизга ачинишни туяпман билинг,  
Мени чорасиз деб хандон кулганлар.  
Сотқинлик либоси ярашар сизга,  
Ўзларидан аввал қалби ўлганлар.



Сизга дардим тўкибман аттанг,  
Эй мени ёлғондан сохта севганлар.  
Шунчалар ишончга кирдингиз алдаб,  
Ўзларидан аввал қалби ўлганлар.

Сиримни сотдингиз алла кимларга ,  
Дердингиз иккимиз дўстдан куйганлар.  
Юракка оғриқлар бердингиз атай,  
Ўзларидан аввал қалби ўлганлар.

Букун келдим яна ёнигизга мен,  
Юраки хасадла тошга тўлганлар.  
Чуқур тазиямни қабул қилингиз,  
Ўзларидан аввал қалби ўлганлар.

\*\*\*

Бир кўнглимла қолиб кетдим кимлар билан,  
Фақат сўзсиз гаплашяпман тунлар билан.  
Юракимни яширибон олиб қўйдим ,  
Сендан қолган энг чиройли кунлар билан.

Ўша кунда қолди энди кулгуларим,



Қайтмас ортга ишонч деган туйғуларим.

Мен хаётдан рози эдим бутун умир,

Қайтиб берса халоватим уйқуларим.

Ўзим ночор билиб ёниб куймоқдаман,

Унутолмай бевафони суймоқдаман.

Лол қоляпман нетай бази одамларга,

Вожаб деб хайроналик туймоқдаман.

Нега кўнглим бунча содда ғўр бўлмасанг,

Сохта меҳир оқибатни сен кўрмасанг.

Мана энди қолдик якка хижрон билан,

Кўнгли тўлмас базиларни сен ўлмасанг.

Ўлган дилга ўқиб қўйдим жинозалар,

Келишмади сени сўраб бир бор кўнглим.

Қилолмадим ўлди дея оввозалар,

Очилмади дуога хам нетай қўлим.

Сукунатда ўзим билан сўзлашаман,

Жимлик тинглар ичимдаги исёнларни.

Таскин бериб кўнглим билан дардлашаман,

Кечиришга куч тополмай инсонларни.

\*\*\*

Энди сабрим тугади ишон,

Ўзгаришинг кутиб чарчадим.

Кўз ёшларим сел бўлди сен деб,



Нега сени севдим билмадим.

Имкон борин бердим қўш қоллаб,

Чиқаролмай юракдан сени.

Айтгин нега бунча ошиқман,

Қай хислатинг жалб этди мени.

Билмам солди қалбга ишқингни,

Жазомисан ёки мукофот.

Шунча берган азобларингни,

Нихояси бўлмаса нахот.

Яна дилга бердинг яна бир оғрик,

Кечиришга қолмади кучим.

Ишон рости букун мен сендан,

Кечиш билан оламан ўчим.



**Maxmatqulov Abdulla Sayfulla**

(Iqtidorli ijodkor)



## **O T A**

Ota. Noming o'zi salobat erur,  
Qilgan har ishing ham karomat erur!  
Tayanib yashadim bir bardoshingga,  
Sabrga sochlaring dalolat erur!

O'g'liga qadrini topshirib qo'ygan,  
Qiziga qalbini yashirib qo'ygan.  
Bir umr avaylab bitta mehrini,  
Bolamga bo'lsin deb, oshirib qo'ygan.

Ota. Bir so'zingga arzimas dunyo,  
Yillar ajinlarni muhrlar go'yo.  
Men-ku, gapga kirmas qaysar bolangman,  
Kulgin. Quvonchingdan quvonsin dunyo!..





**O'zbekni bilmasang, tanib ol dunyo,**

Sen mudrab yotganda xon edi, o'zbek!

Umr o'tkinchidir, vaqt oqar daryo,

Qoni qaynoq, issiq jon edi, o'zbek!

Mamlakati Turon, xalqi Turkiston,

Bobosi Turk hoqon, shon edi, o'zbek!

Ba'zida eliboy, ba'zida turg'un,

O'tmishi zafarga boy edi, o'zbek!

Yetmish yil yiqilsa, yiqilibdi-da,

Uch ming yil yashagan tan edi, o'zbek!

Temurdek o'g'lona ming bitta o'tgan,

Sohibqironlarga kon edi, o'zbek!

Zo'rman deb o'zidan ketganlarga boq,

Vaqtida baridan zo'r edi, o'zbek!

Tarixga nazar sol, kelajakka boq,

Har bosgan tuprog'ida bek bo'lar, o'zbek!



**Men-ku, sizdan ranjimadim, ko'nghlim qoldi!**

O'zimdanda ham qizg'onardim, hatto, sizni,  
Ayriliqlar ayirolmas edi bizni!  
Taniyolmay qoldim, nahot, endi sizni,  
Men-ku, sizdan ranjimadim, ko'nghlim qoldi!..

O'ylagandim, o'ylarim ham xato bo'ldi,  
Yig'lamadim, yuragimga g'amlar to'ldi.  
O'z ko'nghlimdan xafa bo'ldim, ag'yor kuldi,  
Men-ku, sizdan ranjimadim, ko'nghlim qoldi!..

Bir so'z demay hayotim tark etdingiz-ku,  
Yor turganda ag'yor qo'lin tutdingiz-ku?!  
Muhabbatim suvdan arzon sotdingiz-ku,  
Men-ku, sizdan ranjimadim, ko'nghlim qoldi!..

O'zgalardan kutsam hamki xiyonatni,  
Sizdan, aslo, kutmagandim qiyomatni!  
Go'riga g'isht qalabsiz-ku diyonatni?  
Men-ku, sizdan ranjimadim, ko'nghlim qoldi!..

\*\*\*

Qurib qolgan qalblardan  
Yiroq qilgin, Xudoyim!  
Faqat so'zda mardlardan  
Uzoq qilgin, Xudoyim!  
Mol-u dunyo do'stidan  
Oshno berma hech qachon!



Bir minnatchi nomardga  
Muhtoj qilma hech qachon!

O'z holingga o'zimni  
Tashlab qo'yma, Xudoyim!  
Mazlumlarning ko'zini  
Yoshlab qo'yma, Xudoyim!

Yo'llarimni yo'linga  
Boshlab qo'ygin, Xudoyim!  
Gar adashsam, ko'nghimni  
G'ashlab qo'ygin, Xudoyim!

Jazoying ham bir rahmat,  
Rahmatingdan ayirma!  
Qazoying ham bir hikmat,  
Hikmatingdan ayirma!

Yozsam so'zlar tugamas,  
O'zing yaxshi bilgaysan!  
Qiyomatda yolg'iz sen  
Chin hakamlik qilgaysan!

Alalxusus, yo Alloh,  
Iymonimdan ayirma!  
Ko'ngillarni yoritgan  
Qur'oningdan ayirma!..



\*\*\*

Bir taskin istaydi shu dam botinim,  
Oniy lahzalarning hurmati haqqi  
birgina tabassum,bir bo'sang uchun  
fido qilar edim Venera\* larni!..

Moychechak bargida diydirab turgan  
shabnamga o'xshaydi seni qaroshing!  
Ozgina yel bo'lsa,ozgina araz,  
Momaqaymoqdayin to'zg'ir xayoling...

Hayotim bir chizgi, musavviri Haq,  
Turfa bo'yoqlarning rangi bor unda...  
Biroq, har onimda g'alati, menga  
nimadir yetmaydi, nimadir, shunda?..

U nima? O'ylayman, tushlarimda ham,  
Balki, muhabbating kerakdir menga.  
Balki, mehr yetmas ko'nglimga biroz,  
Balki, yillarimni sarflarman senga...

Gohida havoga uchadi bari,  
Ba'zida havo ham yetmaydi yolg'iz,  
Yolg'iz yuragimda bir savol qolar,  
Javobi noma'lum, javobi so'ngsiz...

Bir taskin istaydi shu dam botinim!..



## **Xolidaxon Orifova**

(Yosh ijodkor)

Ko‘plab tanlovlar g‘olibi. She‘rlari Respublika jurnallarida chop etilgan. Bir nechta antologiyalarga ijodiy ishlari chiqqan.



## **Bahor keldi**

Bahor gullari keldi ,  
Qirlar lolaga tòldi .  
Quvonchlar olib keld,i  
Mening go'zal yurtimga .

Sumalakka tosh solar ,  
Kottalar niyat qilar .  
Yurtimda tòylar bòlar,  
Bahor keldi azizlar .

Qor yomg'irlar òtibdi ,  
Bahor fasli ham keldi .  
Quyosh nurlarin sochdi ,  
Jannatmakon yurtimda.

Arzimas dunyo

Baxra olay hayotdan tòyib,  
Dushmanlarim kòrib kuysinlar .  
Yeğlamayman bağrimni òyib ,  
Kòz yoshimga arzimas dunyo .

Ojizlardek qilmayman faryod ,  
Dard kelsa ham qilmayman dod .



Dushmanlarim qilolmas meni mot ,  
Kòz yoshimga arzimas dunyo .

Boshim egib sizga bordimmi ,  
Yo kòzlarim nam qildimmi.  
Taqdirdan nolib jar soldimmi ,  
Kòz yoshimga arzimas dunyo.  
So‘ng‘i qo‘ng‘iroq  
Har kun erta turmaymiz,  
Maktab tomon yurmaymiz .  
Bir birimizni ko‘rmaymiz ,  
Xayr endi sinfdoshim.

Armon bo‘lib qolyapti ,  
Yuraklar yeg‘layapti .  
Hayotga qadam qo‘yapti ,  
Armon bo‘lgan sinfdoshim .

Bu yuraklar ko‘nmaydi ,  
Sog‘inib hech qo‘ymaydi.  
Bugun hamma yeg‘laydi ,  
Xayr endi sinfdoshim.

Qo‘lga qalam olganmiz ,  
Oymomoni chizganmiz .  
Sho‘xlik qilib yurganmiz ,  
Armon bo‘lgan sinfdoshim.



Yana ko‘rishamizmi ,  
Sho‘xliklar qilamizmi .  
Maktabga boramizmi ,  
Xayr endi sinfdoshim.

Bugun billa bo‘laylik ,  
Yoshlik davrin eslaylik .  
Hammamiz jam bo‘laylik ,  
Armon bo‘lgan sinfdoshim.





### **Qizingiz kulolmayapti**

Yuraklari dardlarga to‘lib,  
G‘am tashvishni yengolmayapti.  
Kulib yurgan qizizdan yana,  
Bugun asar qolmadi ona .

G‘am kelsa ham kulib yengardi ,  
O‘zgalarga dalda bo‘lardi.  
G‘amlardan yiroq yurardi,  
Ona, ona qiziz kulolmayapti.

Endi kimlar dalda bo‘larkin,  
Kulguchlarim olib kelarkin.  
Kulib yurgan qizizdan yana,  
Bugun asar qolmadi ona.

Biz sevgidan kuyib bo‘lganmiz,  
Sinovlarni yenga olganmiz .  
Dard kelsa kulib turganmiz,  
Ona, ona qiziz kulolmayapti.

Shayton bizga dars beryapti ,  
Yomon yo‘lga chorlayapti.  
Farishtadan yiroq bo‘lyapti,  
Ona, ona qiziz kulolmayapti.



**Zarbegim ( Zilola O‘razboyeva ) Zarifboy qizi.**

25-avgust 2005-yil. Xorazm viloyati Shovot tumani Gulshan mahallasi fuqarosi. Hozirda Urganch RANCH texnologiya universiteti 1-kurs talabasi. " Ota onam baxtimdir ", " Beg'ubor tuyg'ularim ", " Tuhfa " nomli she'riy kitoblari nashr qilingan. Ko‘plab gazeta, jurnallarda she'rlari chop qilingan. Televideniyalarda o‘z ijodi bo‘yicha ko‘plab chiqishlar qilgan.



## **O‘zbekiston**

Go‘zallikda yagona,  
O‘xshar oftob jahona.  
Men farzandman, men farzand,  
O‘lkam O‘zbekistona.

Xalqim oliy himmatli,  
Axil-inoq qudratli.  
Bordir oqil yurtboshim,  
Shon shavkatli hurmatli.

Qo‘limizda ko‘p imkon,  
Maftun bizga, keng jahon.  
Buyuklar ichra buyuk,  
Bo‘lar hur O‘zbekiston.

Zilola kuylar jo‘shib,  
Mehrini she'rga qo‘shib.  
Vatan madhini yozsa,  
Ketar ko‘ngli yorishib.



## **Ishq dardi**

Yuragimni ezdi hijronlar,  
Bu qalbimda, cheksiz gumonlar.  
Ketarmikan dildan armonlar,  
Sevishimni qanday aytayin.

Bu koʻnglimda, ishq toʻla nola,  
Koʻz yoshlarim, joʻshqin shalola.  
Muhabbatim haqqi havola,  
Sevishimni qanday aytayin.

Ishq degani, tugalmas azob,  
Jon tanangni, qiladi kabob.  
Bu qalbimda, ingragan xitob,  
Sevishimni qanday aytayin.

Tunlar bedor, oʻtmoqda tinmay,  
Koʻzlarim ham, uyquni bilmay.  
Bu holimga, boʻlarmi kulmay,  
Sevishimni qanday aytayin.



## **Ota onam**

Ota onam, jon-u jahonim,  
Qadrdon-u, ham mehribonim.  
Hayotimda, yo‘lchi yulduzim,  
Malikam-u, shohi sultonim.

Ko‘zlarimda yongan chirog‘im,  
Nola cheksam, dilimda ohim.  
Bu dunyoda, har bir qadamda,  
Ota onam pushti panohim.

Ular borki, baland parvozim,  
Tinmay sayrar, qo‘limda sozim.  
Ota onam qalbim gavhari,  
Har onimda, dilda hamrozim.

Zilola der, bo‘lsinlar omon,  
Ko‘rmasinlar sira, kun yomon.  
Baxtim tilab, kunduz-u kecha,  
Duolarin qilsinlar haron.



## **Hayot**

Ko'pdir bo'ron to'foni,  
Ham yaxshi-yu yomoni.  
Bordir to'rtta tomoni,  
Bu manashu hayotdir.

Qorasi ham oqi bor,  
Achchiq shirin toqi bor.  
Yaqin ham yiroqi bor,  
Bu manashu hayotdir.

Gohi asal goh shinni,  
Goho qiladi jinni.  
Tinglamaydi hech kimni,  
Bu manashu hayotdir.

Yuraging qiladi tosh,  
Gohi egib qo'yar bosh.  
Tog'dan qattiq bag'ritosh,  
Bu manashu hayotdir.



## **Ayol**

Bahor ayolga timsol,  
Go‘zallik baxtga misol.  
Ayol borki osmonda,  
Nur sochar, shamsi hilol.

Ayol mehri bir ummon,  
Baxra olar har bir jon.  
Shu bois " ona " deya,  
Atalur Vatan, Bo‘ston.

Ona zamin sajdagoh,  
Ona farishta ham moh.  
Ona bosgan qadamni,  
Deymiz jannatiy tuproq.

Ayollar bo‘ling omon,  
Siz bor fayzli, bu davron,  
Muqaddas onalarga,  
Makondir O‘zbekiston.



### **Vatan himoyachilari kuniga**

Ona xalqim, jismidagi jon,  
Sarhadlarda go‘yo zirh, qalqon.  
Alpomishday botir, qahramon,  
Vatanimning himoyachilari.

Hushyor sergak, kunduz-u kecha,  
Qasamyodga sodiq, o‘lguncha.  
Ular tursin, dunyo turguncha,  
Vatanimning himoyachilari.

Sohibqiron bobomga izdosh,  
Manguberdi sultonga izdosh.  
Go‘yo uzuk, ko‘zindagi qosh,  
Vatanimning himoyachilari.

Zilolaning tilagi dilda,  
Tinchlik bo‘lsin, har millat elda.  
Yurt tinchligi, ishonchli qo‘lda,  
Vatanimning himoyachilari.





**Artikbayeva Shahzoda Saidkarim qizi**  
(Yosh ijodkor)



## Oy

Nega buncha chiroylilisan oy?

Ta'rifinga tillar ham ojiz!

Taratarsan mayin shulalar,

Qaydan olding shulalarni sen?

Taratarsan qorong'uda nur,

Yo'l ko'rsatib menga to'lin oy

Seni korib havasim kelar,

Menga ham ber shulalaringdan.

Quyoshdanmi yo, shulalaring?

Hamma aytar quyoshdandir deb.

Sen menga javob ber to'lin oy bir bor,

So'zlashaylik tong otgungacha!

Sen quyoshdan nur olarmiding?

Quyosh sendan chiroy olyapti.

Men so'zlashdim quyoshjon bilan,

Hamma chiroy sendan kelyapti.



## **Kitob**

Bilmaganim o'rgatib turasan doim,  
Sen mening bebaho qadrdon do'stim.  
Maslahat berasan shirin muloyim,  
Sen mening oftobim sen mening oyim.

Quyoshimsan bilimlari o'chmas chirog'im,  
Har kuni o'qiyman o'qib to'yamayman.  
O'qisam ortadi mehr ishonchim,  
Sen mening kitobim do'stim quvonchim.

Kunda o'qimasam ko'nglim tinchimas,  
Sen bo'lmasang borliq hech ham kerakmas.  
Sen menga o'rgatding borliq dunyoni,  
Seni bir o'qimasam ko'zlarim kulmas.

Har bir kunim sen bilan o'tar maroqli,  
Sen butun dunyoda bo'lding ardoqli.  
Sen bilan olimlar sen bilan olam,  
Sen bilan bo'laylik biz ham hurmatli.



## **Opajon**

Har kun sirlarini ishonib,  
Meni dugondek ko‘radi.  
G‘amgin bo‘lsam qo‘limdan tutib,  
Meni doim qo‘llab turadi.

Urushmaysiz siz boshqalardek,  
Meni har on erkalatadi.  
Urushsam gar boshqalar bilan,  
Faqatgina yonim oladi.

Kunlarimdir u bilan birga,  
Oldimdan bir zum ham ketmaydi.  
Hazillashar mehribon juda,  
Sizdek opa kamyob bo‘ladi.

Mehribonim bezorimsiz,  
Qondoshimsiz vafodorimsiz.  
Sizni doim hurmat qilaman,  
Osmondagi to‘lin oyimsiz.



## **Go'zallikka oshiqman.**

Dunyoni o'ragan gullar olami,  
Jilvakor turishi ko'nghim oromi,  
Qizg'aldoq bir tekis nedan kuch oldi,  
Bu ishqmi, otashmi o'ragan sehri.

Har taraf gullarga tolib toshgandir,  
Nigohim qaratsam ko'nghim olgandir.  
Qizg'aldoq ochilib chiroy ochgandir,  
Shunchalik tabiat cho'g'dek yongandir.

Qalbimdek lovillar ko'nghim olgandur,  
Oshiqman alvon rang qizg'aldoqlarga.  
Bildirmay qalbinga Kirib kelgandir,  
Roziman ming qilgan arazlariga.

Atrofdan ne bolsa chiroyli Bari,  
Orom baxsh etadi murgak qalblarga.  
Tabiat Shunchalik gozalligidan,  
Kozlarim quvnaydi barcha narsaga.



**Qurbonova Ruxshona Abdujamol qizi**

(Yosh ijodkor)

"Page 3" va "Kenya Times" gazetalarida maqolam chop etilgan. Maktabda o'qiyman



## Najot-ta'limda

"Najot-ta'limda"- bu yutboshimizning ustuvor loyihalaridan birida aytilgan fikr.Bugungi zamonda yoshlarning komil inson бўлиb yetishishi ahamiyatlidir Taraqqiyot bōsag'asida turgan choġimiz bizni davlatimizni jahon minbarlarida tilga olinishini ta'minlaydigan yoshlarni oqituvchi, muallimlar tarbiyalaydi . "Oqituvchi-muallim"atamasi sōngi kunlarda kōp foydalaniladigan sōz bōldi. "oqituvchi" deganda ertalabki badantarbiyada har xil bema'no qōshiqqlar ostida qiliqlar qilib,raqsga tushayotganlar yoxud oquvchilarga yetarli bilim bera olmay, ot-onalardan kechirim sōrayotganlar tushinilmaydi. Yuqorida aytilganidek qōshiq ostida raqsga tushish sochlariga oq oralagan , qōpol qilib aytganda "kap-katta"muallimlarning oquvchilari oldida oz obrōsini tōkishi shu bōlsa kerak!! Bu gaplar oynai jahon orqali ham efirga uzatildi. Ba'zi tajribasiz oqituvchilar zahmatkash, shijoatli ustozlarning mehnatini beqadr qilmoqda. Biz oqituvchilarni tanqid qilmoqchi emasmiz.Ularning eng fidoyisi , oldi muallimi haqida sōz yuritmoqchimiz. Ozlariga bu maqola haqida aytganimda : " Mendan yoshi ulug'roq,tajribali oqituvchilar bor. Ular haqida yozing"-dedilar. Lekin baribir qalamim shu inson haqida yozmagunimcha tinchimasdi.Toshkent viloyati Ohangaron tumani 7-umumiy orta ta'lim maktabida bir necha yillardan buyon tarix fani oqituvchisi sifatida faoliyat yuritayotgan Rayimberdiyev Oybek akani qōl uchida ish qiladigan, dars bōyi kōzini mobil telefonidan uzmaydiganlarga o'rnak qilsang arziydi kishi. 1982-yilda tavallud topgan ustozimiz yosh bōlishlariga qaramay ancha pedagogik bilimlarni o'zlashtirgan. Dars o'tish jarayonida biroz qattiqqōl,kezi kelsa yordamini ayamaydigan inson.Darslarini kuzatar ekanman realizm, aktualizm bilan sug'orilgan fikrlari oquvchilarni hayolot dunyosidan chetlatib,real hayotga qaytaradi.Oybek ustozning bir fikrlari shaxsan menga ma'qul bōldi:"Hamma ham oliy ma'lumotli bōlavermaydi muhimi foydali inson bōlish"Ularning yetuklikka intilgan inson bōlishlarida ustozlari Abdusamat domlaning o'rne kattaligi aniq.Hozir oramizda yōq bōlsalarda ishonamizki shogirtlari Oybek ustozdan faxrlangan bōlardilar. Ularning darslaridan shunday xulosaga keldim:Oqituvchi nafaqat pedagogik bilimlarga balki psixologik bilimga ham ega bōlishi kerak ekan. Shu insonda har ikki hislatni kōra olasiz. Men bugun o'z oqituvchimni maqatamadim. Zamon tili bilan aytganda "paxta qōymadim". Barchasini rōy-rost yozdim. Nima qilmay jurnalistikaga endi qadam qōyayotgan jurnalistman yolġon yozishga haqqim ham yōq. Ishonchim komil ustozimiz albatta "Xalq maorifi a'lochisi" unvoni bilan taqdirlanadilar.Men bu gal yozganlarim bilan sizlarga aqllilik qilmoqchi emasman. Biroq bir oqituvchining vatan oldida o'z burchini ado etayotganini tarġib etishga haqliman.



## **Jangovar ruh askarning kuchi**

Milliy armiyamiz -xalqimiz , mamlakatimizning ishonchli va mustahkam qalqoni. Harbiy, askarlarimiz bizning tinch va osoyishta hayotimiz uchun tun-u kun suvda, quruqlikda hatto samoda ham bizni xavf-xatardan himoya qiladi. Bu jarayon ulardan metin iroda va mukammal ruhiyat talab etadi. Hozirgi kunda harbiy kadrlarning jangovar qobiliyati va tayyorgarligi bilan birga Vatanparvarlik tarbiyasiga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda. Chunki dunyoda kechayotgan global jarayonlar ogohlik va xushyorlikni yanada oshirishni tinch va xavfsizlikni ta'minlash yōlida sobit qadam bōlishni taqozo etmoqda. Qōshinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish orqali milliy armiyamizni kuchini yanada oshirishimiz mumkin. Qōshni mamlakatlardagi ilg'or tajribalarni ōrgangan asosida askarlarning jangovar shayligi va mahoratini oshirish ham bu muhim vazifa. Har bir ōsib borayotgan yosh yigit-qizlar ham kelajakda Vatanni himoyalaguvchi harbiy bōlishni xohlaydi. Shu sababli ham yoshlarni harbiy Vatanparvarlik yuksak ma'naviy axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bōyicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu borada ōtgan yili mamlakatimiz bōylab "Vatan tayanchi" bolalar va ōsmirlar harakati tashkil etildi. Barcha umumta'lim maktablarida mazkur harakatning 20mingdan ziyod ōquvchi yoshni qamrab olgan guruhlari tuzilgani farzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yuksaltirishga munosib hissa qōshayotganini ta'kidlash lozim. Askarlarimizning jangovar tayyorgarligini oshirish harbiy an'analarni yanada mustahkamlash buyuk ajdodlarimizga munosib mard va jasur bilimli va jismonan baquvvat Vatan himoyachilarini tarbiyalash turli xil musobaqalar ham katta ahamiyatga ega. ōtgan yili harbiy qismlarda ilk bor " Amir Temur jangovar bayrog'i" uchun musobaqalar bōlib ōtdi. Xulosa qilib aytganda milliy ruh kuchli bōlsa jangovar salohiyat ham yuqori bōladi. Kelajakda harbiy bōlshni orzu qiladigan botir farzandlar milliy ruhni muqaddas Vatan taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini Vatanimiz boy tarixidan Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi. Shuning uchun har bir askarda va serjantda , ofitser va generalda milliy va jangovar ruh va g'urur bōlishi kerak.

Milliy ruh bu yengilmas kuch.





### **Abdulhakim Ali Mirzamahmudov**

Farg‘ona viloyati Qo‘sh tepa tumanida tavallud topgan.

Hozirda O‘ZMU ning sirtqi jurnalistika fakultetining 2- kurs talabasi.O‘zining ijodiy izlanishlari natijasida yosh shoir O‘zbekiston Liberal Demokratik partiyasi a‘zosi, Mushoira klubi a‘zosi, Qozog‘iston Respublikasining „Qo‘sh qanot shoir va yozuvchilar" uyushmasi a‘zosi .

Ijodkor sohadagi faol ishtiroki uchun. „Xizmat ko‘rsatgan ijodkor " ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



## **Bolalik**

Xayr deya, alvido deya,  
Olislarga ketgan bolalik.  
Shirin hayollarga aylanib,  
Dilni o‘rtab ketgan bolalik.

O‘sha tanish chang tuproq ko‘cha,  
Berkinmashoq o‘ynab yurardik.  
Sen berkinding, bizlar ahtarib,  
Topa olmay bo‘zlab yurardik.

Ko‘cha boshi tollarni qara,  
Nihol edi dovdaraxt bo‘ldi.  
Biz chillashir yosh bola edik,  
Bilagimiz kuchlarga to‘ldi.

Yillar o‘tib bizlar ulg‘aydik,  
Bo‘ylarimiz ancha cho‘zildi.  
Bu hayotdan ko‘p saboq olib,  
Aqlimizga aql qo‘shildi.

Bolaligim sen bizga bu kun,  
Bebaho bir baxtni ulashding.  
Ulashdingu sen bizdan ammo ,  
Shirin diydor vaqtni talashding.

Bolaligim sen shirin azob,



Mendan buncha berkinding qochding.

Hayotimning baxt kitobidan,

Sen yana bir sahifa ochding.

### **Faxr**

Tunda go‘zal bizning Farg‘ona,

Bog‘-u rog‘i jannat makondir.

Farg‘ona tong otguncha derlar,

Bu tarifga monand maqomdir.

Avtolarga to‘lgan ko‘chalar,

Ming bir hilda chiroq yongaydir.

Shovqin suron tinmas kechalar,

Balki hayol, o‘zdan tongaydir.

Salqin havo, shaboda g‘ir-g‘ir,

Bir maromda esadi mayin.

Taskin berar shoir zotiga ,

U ijodga qaytmog‘i tayin.

Necha yilni boy berib bo‘ldi,

Qo‘ldan ketdi anchayin vaqtlar.

Qog‘oz qalam tutib, so‘z izlab,

Tugab bo‘lgan edi toqatlar.

Hayoliga ne kelsa yozar,

Qofiyalab solib qolibga.

Omad oti chopmoqda bu dam,

Minbardan joy bering g‘olibda.



U sahnada, mikrofon tutib,  
Ertaklarni qilmas hikoya.  
Fargʻonaga tarif bermoqchun,  
Bir kublet sheʻr aytsa kifoya.

Osiyoning gavhari derlar,  
Har kunida yangrar tarona.  
Ipak yoʻlda atlas Margʻilon,  
Har kun mehmon kutar Fargʻon.  
Musofirning onasi

Tandirdan non, kulchalar uzib,  
Kosalarga qaymoqlar suzib.  
Qoldi shoʻrlik qoʻllarin choʻzib,  
Musofirga ketdi bolangiz.

Ona siz deb yuragim urib,  
Oʻzga yurtda bir kunim koʻrib.  
Yoz saraton, qishda qor kurab,  
Musofirga ketdi bolangiz.  
Jsh boshlaymiz erta saharda,  
Moskivadek keng bir shaharda.  
Izlasangiz meni agarda,  
Musofirga ketdi bolangiz.

Mazasi yoʻq osh, non tuzimni,



Mevasi yo‘q hatto kuzimni  
So‘g‘inch, kemirmoqda o‘zimni,  
Musofirga ketdi bolangiz.

Libos kiyib sochlarim tarab,  
O‘zim shodlik, quvonchga o‘rab.  
Lek ichimdan boryapman nurab  
Musofirga ketdi bolangiz.

Bola edim bir payt men ham,  
Ko‘cha kezib tinmasdim hech ham.  
Eh mehrimni ko‘rmayin baham,  
Musofirga ketdi bolangiz.

Sho‘rlik nima topsa ilinsa,  
Xavotirdan ichi tilinsa.  
Men nodonga endi bilinsa,  
Musofirga ketdi bolangiz.

Qulog‘imda siz aytgan alla,  
Qanday baxtli ekan shu palla.  
Salomatmi qishloq, mahalla,  
Musofirga ketdi bolangiz.

Gap ochmaysiz tillodan, puldan,  
Umid qilmay sovg‘a yo guldan.



Iliq soʻzni kutib koʻngildan,  
Musofirga ketdi bolangiz.

Ona bu yil kuzda qaytaman,  
Sevishimni sizga aytaman.  
Hatto oʻzim lol, hayratdaman,  
Sizsiz yasholmaskan oʻgʻlingiz...



**Shoira Manzur**

(Xorazmning xushnafs ijodkori)



\*\*\*

Кўзлар алдамайди хеч қачон,  
Минг ёлғончи, минг сохта бўлинг.  
Майли бир кун, майли бир онга,  
Бўлолсангиз самимий бўлинг.

Ортимдан гапирманг хатоларимни,  
Сиз нима топасиз, мен не топардим.  
Гийбатдан кимнингдир боғи кўқарса,  
Остонасида мен юз йил ётардим.

Тириклик аслида уч кунми, беш кун,  
Роббимиз амр этса, хозир ўламиз.  
Эртани ким билар, ким айта олар,  
Ким билсин эртага қандай бўламиз.

Чиройли яшамоқ, чиройли ўлмоқ,  
Шу эмасми ахир хаёт негизи.  
Бўлмайди шунчаки севилмоқ, севмоқ,  
Бўлмайди шунчаки яшашнинг ўзи!

Кўнгили ойнасидир кўзлар бегумон,  
Тубида не бўлса кўрсатар шаксиз.  
Қачонки, айбимчун "саваларкансиз",  
У борада тамоман ҳақсиз!





## ЭРТА БЎЛАДИМИ,ЙЎҚМИ...

Куйманг, кули ўргилсин,  
Ташвишлар ҳам бор бўлсин.  
Бугун яшанг ,ким билсин  
Эрта бўладими, йўқми!?

Ким бор,ким йўқ замонда,  
Пул деган шу зорманда.  
Қадр кетиб кармонда,  
Эрта бўладими, йўқми?.

Кўзда нам-у, бежолик,  
Қаранг хаёт нечоғлик.  
Гўзал, ва лекин соғлик,  
Эрта бўладими, йўқми?

Ота она омонат  
Қорачиғдай асраш шарт!  
Бир фасллик меҳмон бахт,  
Эрта бўладими ,йўқми?  
Дэяр гапни бугун дэнг,  
Ўйнаб-кулинг,ичинг,енг.  
Бугунги кун мухими энг,  
Эрта бўладими, йўқми?

Бир ниҳол ўсаркан жим,



Унга боғбонмиз хар ким.  
Фурсат, шош эй муаллим,  
Эрта бўладими, йўқми!?

Бўйлаб -бўйлаб беҳиштга,  
Банди бўлсак "тўрт ғишт"га.  
Имкон-ки, савоб ишга,  
Эрта бўладими, йўқми!?

Кизлар узи гузал булади,  
Ёзсанг шеър-у ,газал булади.  
Бахор чоги боғларда юрса,  
Куриб ой хам касал булади.

Кузни олар малохатлари,  
Битмас солса жарохатлари.  
Хазонларда колган хатлари,  
Кукламларга махтал булади.

Севги ширин, мухаббат ширин,  
Телба килмай куймас ошигин.  
Куйласалар севги кушигин,  
Булбуллар хам усал булади.

Сутдай оппок тоза диллари,



Хавас килар жаннат хурлари.

Улар ерни гунча гуллари,

Сўзлари бол-асал булади.

Она бўлар биркуни келиб,

Қучоғига гўдаклар тўлиб.

Бир муштипар волида бўлиб,


Фидаликка тимсол бўлади.

Чиройини олиб кетса ғам,

Йиллар ўтиб мункиб қолса хам.

Яратганнинг мўжизалари ,

Ичра битта мисол бўлади.



**Nargizabonu Mamadaliyeva,**  
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat  
universiteti o‘zbek filologiya  
fakulteti 4-bosqich talabasi.



## MIRZAXO‘JA

Annotatsiya: Qo‘yilgan tarixiy joy nomlarining o‘zgarishi, bir tarixning unitilishiga olib keladi, bu esa adabiyotshunosligimizga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Har bir viloyat, tuman va mahallaning qo‘yilgan nomida tarixiy voqealar yotadi. Shunday joy nomlaridan biri Mirzaxo‘ja mahallasidir. Bu maqolada Mirzaxo‘ja mahallasining nomi bilan bog‘liq tarixiy voqealar tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona, Qo‘qon, Mirza Xoja, Mirzaxo‘ja, qishloq, Isoboy buva, Berdiboy buva, xalq.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan g‘ayratli, shijoatli yoshlarga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarida o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Toponim so‘zi asli grekcha, ikki qismdan topos "joy" va onyma "nom" so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, joy nomlari haqidagi fanni anglatadi.

Toponimlarning kishilar hayotidagi asosiy, bosh vazifasi manzilni ko‘rsatib berishdir. Manzil biror kishi yoki tashkilot o‘rnashgan joyining batafsil nomidir. Demak, toponimlar biror geografik ob'ektning joylashgan o‘rnini yoki birovning yashaydigan joyini anglatadi. Manzilning noto‘g‘ri ko‘rsatilishi yoki bir xil nomdagi manzillarning bir nechta bo‘lishi jamiyatda ko‘plab qiyinchiliklarni keltirib chiqargan bo‘lar edi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyati bilan xalqaro aloqalari, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi axborot almashinuvi kengayib borayotgan davrda geografik nomlarga bo‘lgan e‘tibor yanada ortib ketdi. Shuning uchun ham toponimik ob'ektlarga nom berish, ularning aniq, to‘g‘ri yozish katta amaliy ahamiyatga ega. Bundan tashqari toponimlar o‘sha joyning tabiiy-geografik sharoiti, u yerda yashagan xalqlar tarixi, etnologiyasi, ijtimoiy hayotda yuz bergan muhim voqealar haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Bunday ma‘lumotlarni olish uchun toponimlarning ma‘nosini bilishga ilmiy asosda yondashish, nomlarga moslab to‘qilgan rivoyat va cho‘pchaklarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi.

Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Joylarga nom berishda qo‘llanadigan yana bir tamoyil mazkur qishloq yoki mahallada yashab o‘tgan yoki uni obodonlashtirishda xizmat qilgan obro‘-e‘tiborli insonlarni nomlarini shu maskanga qo‘yishdir. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozim, islom dinida joy nomlariga kishilar ismini qo‘yish odati bo‘lmagan. Fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo Parij shahri nomi mening sharafimga o‘zgartirilishi lozim deb da‘vo qilgan bo‘lsa, bizning vatandoshlarimiz o‘z vatanlari nomini nomlariga qo‘shib (Farg‘oniy, Marg‘iloniy, Termiziy, Xorazmiy kabi) yurt dovruq‘ini olamga yoyishni afzal ko‘rganlar.



Respublikamizdagi joy nomlarining barchasini insonda estetik zavq uygʻotadigan, milliy mafkura va qadriyatlarimizga mos keladigan, hududning xususiyatlarini oʻzida aks ettiradi, nomlarni oʻzgartirish ehtiyoji yoʻq, shuning uchun, bunday nomlarni tarixda muhirlab, aslligicha kelajak avlodga yetkazish kerak.

Prezident Sh.Mirziyoyev shu kabi holatlar haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Afsuski, jamoat joylarida, koʻchalarda, binolar peshtoqida toponimik belgilar, turli lavha va reklamalar koʻpincha xorijiy tillarda, maʼnaviyatimizga yot mazmun va shakllarda aks ettirilmoqda. Bu davlat tili talablariga, milliy madaniyat va qadriyatlarimizga bepisandlikdan, umumiy savodxonlik darajasi esa tushib ketayotganidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan, Vazirlar Mahkamasi Atamalar komissiyasi bilan birgalikda, ushbu masalalarni keng jamoatchilik ishtirokida jiddiy oʻrganib chiqish va tartibga solish zarur. Chunki ijtimoiy obʼektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va maʼnaviy saviyamizni yaqqol koʻrsatadigan oʻziga xos mezondir. Buni hech kim hech qachon unutmasligi kerak. Biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida oʻylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, goʻzal urf-odatlarimiz, betakror sanʼatimiz va adabiyotimiz, ona tilimizni koʻz qorachigʻiday saqlashimiz zarur”.

Davlatimiz rahbari tomonidan joy nomlari boʻyicha taʼkidlab oʻtilgan muammolarni bartaraf qilish uchun toponimlarni tarixiy oʻtmishi jihatdan tadqiq qilish kerak.

Shunday ekan, tarixiy oʻtmish hikoyalari tadqiqi adabiyotimizda oʻz aksini topadi va boyishiga sabab boʻladi. Chunonchi, Fargʻona viloyati Uchkoʻpriq tumanida joylashgan Mirzaxoʻja mahallasining nomi bilan bogʻliq oʻz hikoyasi bor.

Mirzaxoʻja Fargʻona vodiysining qadimiy yirik qishloqlaridan biridir. Uning tarixi Qoʻqon shahri tarixiga tengdoshdir. XIII asrda mugʻul bosqinchilari tomonidan vayron qilingan va temuriylar davrida qayta tiklangan. Qoʻqon xonligi davriga oid hujjatlarda qishlok nomi "Mirza Xoja" shaklida yozilgan. XVIII-XIX asrlarda qishloq Bibi Ubayda muzofati Mirza Xoja qari (karya-oʻn-oʻn besh qishloqdan iborat maʼmuriy birlik)sining markaziy-bosh qishlogʻi hisoblangan.

Mustamlaka davrida (XIX asr oxiri-XX asr boshlari) qishloq Qoʻqon uyezdi Bibi Ubayda volosti Gʻijdon qishloq jamoasi tarkibida boʻlgan. 1909-yilgi statistika maʼlumotlariga koʻra Mirzaxoʻja mazkur qishloq jamosidagi eng yirik qishloq boʻlib, bu erda 116 xoʻjalik mavjud edi, 86 xoʻjalik oʻz ekin yeriga ega boʻlgan, 30 xoʻjalik yersiz hisoblangan. Qishloqda 270 nafar erkak, 221 nafar ayol, jami 419 kishi istiqomat qilgan.

Qishloq XVI asrning ikkinchi yarmigacha Arab Gʻijdon deb atalgan. 1560-yilda Fargʻona vodiysi Shayboniylar davlati tarkibida boʻlib turgan paytda, Joʻjixon avlodidan boʻlgan qozoq xoni Buydashxon bir necha qozoq xonliklari ishtirokida Talos togʻlaridan oshib oʻtib, Fargʻona vodiysiga shimol tomondan bostirib keladi. Bu paytda Fargʻona lashkarining asosiy qismi Safaviylar davlatiga qarshi urushda ishtirok etish uchun Balx shahriga yuborilgan edi. Oʻsha davrda Naqshbandiya



tariqatining yo‘lboshchisi bo‘lib turgan ulug‘ so‘fiy Mavlona Lutfulloh Chustiy xazratlari xalqni qozok-mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashga chaqiradilar. Har bir viloyat, har bir qishloqdan xalq lashkari tashkil etilib, Mavlona ixtiyorlariga yuboriladi. Xuqand (Qo‘qon) shahri va uning atrofidan yig‘ilgan xalq lashkarining bir qismiga Mavlonaning shogirdlari, Arab G‘ijdon qishlog‘ida istiqomat qilib turgan Mirza Xoja Muzaffar Xoja o‘g‘illari boshchilik qiladilar. Mavlona boshchiliklaridagi xalq lashkari Axsikent shahri yaqinida bo‘lib o‘tgan janglarda qozoq-mo‘g‘ul qo‘shinini tor-mor qiladi. Buydashxon jangda o‘ldiriladi. Bu jangda Mirza Xoja katta qahramonlik ko‘rsatadilar va shahid bo‘ladilar. Hamqishloqlari u zotning jasadlarini qishloqqa olib kelib, katta izdihom bilan dafn etadilar. Janozaga Mavlonaning o‘zlari o‘tadilar. Shundan so‘ng xalq bu qishloqqa qahramonning nomini berib, "Mirza Xoja" deb atay boshlaydi. Demak, qishloq to‘rt yarim asrdan beri shu tabarruk nom bilan atab kelinmoqda. Xalq talaffuzida "Mirza Xoja" degan nom "Mirzaxo‘ja" shakliga o‘zgarib, bizgacha yetib kelgan.

Mirza Xoja xalq qahramoni. Zamona zayli bilan u kishining qabri yo‘q bo‘lib ketgan. Qahramonning nomini abadiy saqlash avlodlar burchidir.

Ma‘lumki, Qo‘qon xoni Xudoyorxon sodiqlik bilan xizmat qilgan, ishonchini oqlagan, yoshi ulug‘ amaldoru mulozimlariga yer chek qilib beriladi, shunday amaldorlardan biri Isoboy buva hisoblanadi. Bu insonga xon tomonidan xalqqa va saroyda qilgan xizmatlarini hisobga olgan holatda 6000 tanob (500 gektar) yer chek qilinadi.

Chek deganda, xon va uning oila a‘zolari, amaldor, dindorlar va mashhur shaxslarning, umuman har qanday kishilarning xususiy yerlari tushunilgan. Shu bilan birga Farg‘ona vodiysida chek so‘zi muayyan yer o‘lchovi ham hisoblangan. Bu nomlar tarkibida esa chek atamasi toponim yasovchi formant bo‘lib, feodalizm yer egaligidan darak berib turadi.

Isoboy buva ayoli Oisha buvi bilan foytun aravada saroydan chiqib kelishadi, hamda yuzdan ortiq novkar va xizmatkorlari bilan Mirzaxo‘ja qishlog‘iga joylashishadilar, bu yerni boshqarishni boshlashadi.

Novkar va xizmatkorlarini uy joy bilan ta‘minlaydilar. Uylanish yoshiga yetganlarni uylantirib: "Mana senga xotin, uy-joy, shundan boshlab sen mening farzandimsan"-deyishgan.

Shuning uchun ham barcha yoshlar "dada"-deb xurmatlarini joyiga qo‘yishadi.

Isoboy buvaning ayoli Oisha onamiz oppoqqina, nurli, juda ham go‘zal, dilbar, oqila va dono, ilmi ayol bo‘lishgan, ko‘pchilik biron bir masalada maslahat va yo‘l-yo‘riq olishga, ishlari yurishib ketish uchun duo qilishlarini so‘rab, hamda farzandi yo‘qlar farzand tilab yonlariga kelishgan.

Isoboy buva hammani hunarga jalb qilishgan, qishloqda qo‘li bo‘sh odamning o‘zi bo‘lmagan. Buva savdo karvoni to‘xtab dam olishi uchun guzar tashkil qilishadi, shoyi matosini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yganlar, shoyilarni Yevropa davlatlarigacha olib borishgan, hamda Xojiga ham 4 marta borib kelishgan.





O'g'illari Esonboy, Omonboy va Berdiboy bo'lib, ularga qishloqni boshqarishni bo'lib berganlar.

Farg'ona viloyati 1876-yil 19-fevralda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan Qo'qon xonligi hududida tashkil qilingan va boy, amaldoru ziyolilarni quloq qilish, qatl qilish siyosati boshlangan. Bu siyosat orqali Mirzaxo'ja qishlog'ida yashovchi 4 aka-ukani ham qatl qilishmoqchi bo'lishadi. Eng kenja farzand 4-o'g'ilni sovet hukumatidagilar miltiqlari bilan otishganda, xalq qo'zg'olon qiladi. Mirzaxo'ja ahli: "Bizning og'a-inimizni o'ldirdilaring, qolgan uch aka-ukamizni o'ldirishga xaqqilaring yo'q"-deya qo'zg'olon ko'tarib, uch aka-uka: Omonboy, Esonboy va Berdiboy bobolarning hayotlarini saqlab qolishadi.

Bu voqeadan keyin Omonboy va Esonboy bobolar bor mol-mulkini ukalari Berdiboy buvaga topshirib, o'zlari Qozog'iston davlatiga ko'chib ketishadi va ukalarining o'limi juda qattiq ta'sir qilib, bu yerlarga qaytishga yuraklari betlamaydi.

Sovet hukumati Berdiboy buvaning qarollari bilan birga Sibirga surgun qiladi. Mirzaxo'ja yerlarini bo'lib tashlanadi, qishloq maydoni qisqaradi.

U yerda Berdiboy buva doimo o'zlari bilan suv qaynatish uchun xumg'on olib yurishgan, yonlaridagiga:

—“Bu yerning suvini qaynatib ichinglar, shunda sog'liqlaringizga zarar yetmaydi”-deyishlariga qaramay ular sovuqda qaynamagan suv ichib vafot etishadi. Sibirdan birgina Berdiboy buvagina sog'-omon yurtlariga qaytib kelishadi. Bu vaqtda bu qishloq aholi ochlikdan kunjara yeb, ishlab vafot etayotgan bo'ladi. Buni ko'rgan buva ayollari Obidaxon buviga: “Men ketishimdan oldin qishloq aholi ochlikdan qiynalishni boshlasa, molxonadagi devorni buzib, bug'doy to'ldirilgan xumlardan aholiga tarqatishingni tayinlab ketgandim, nega qishloq ahliga tarqatmading”-deyishganda, Obidaxon buvi: “Uzr, siz ketganingizdan keyin 9 bola bilan yolg'iz qolib, aytganlaringiz xotiramdan ko'tarilibdi”-deb javob qaytarishadi.

Buva molxonaning xumlar yashirilib devor qilingan joyini buzib, 4 ta juda ham katta ulkan xumlarning ichidagi bug'doyni qishloq aholisiga yeyish va ekish uchun tarqatishadi va aholini ochlik girdobidan saqlab qolishadi.

Berdiboy buva juda ham aqlli va donishmand, juda ham kelishgan, baquvvatligidan ot ham va eshak ham ko'tara olmagan, xachirga arava qo'shib, aravada yurishgan. Shu darajada salobayli inson bo'lishganki, soyalari ko'rinishi bilan qishloq aholisi uylariga kirib ketishgan, ko'chalarda bir zog' ham ko'rinish bermagan.

Boshqa qishloqdagi qo'rboshi va o'g'rilar bu qishloqqa kelishga yuragi betlamagan. Chunki bu yerda yolonchilik, o'g'rilik, dangasalik juda og'ir gunoh sanalgan, bu illati bor insonlar jazolanmasdan qolmagan. Shuning uchun ham aholisi juda mehnatkash, hunarmand va ishbilarmon.

Nevalardan Berdiyev Umurzoqali Usmonovich otani boshqacha ko'rishgan. Ularga qaynagan va zilol oqib turgan suvni ichishni va bir yerda to'plangan suvni





ichmaslikni maslahat berib: “Umurzoqali, quduqqa borib suv olib kel”-deya piyola berib, suv olib keltirishadi, suvni kigiz ustiga to‘kishadi, suv kigizga singimaydi, keyin qaynagan suvni kigizga sepishlar bilan singib ketadi. Shunda buva: “Ko‘rdingmi? Qaynagan suv inson organizmiga shunday singadi, qaynamagan suv esa singimaydi, doimo qaynagan suv ichishga odatlan”-deyishadi.

Berdiboy buva Sibirdan qaytib kelishgandan so‘ng Mirzaxo‘ja qishlog‘iga raislik qilishadi, 94-yoshlarida vafot etishadi.

Mirzaxo‘ja qishlog‘i haqida bir maqol bor: “Mirzaxo‘jaga bir ip adashib kirsam, kamida mato (yoki paypoq) bo‘lib chiqar”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Mirzaxo‘ja mahallasining nomi xalq qahramoni Mirza Xoja nomiga qo‘yilgan. O‘z xalqining erkin yashashi uchun qahramonliklar ko‘rsatgan insonlar doimo ulug‘lanib, sharaflanib kelingan, nomlari esa tarix sahifalarida muhrlanadi, yanada nomlari saqlanib qolinishi uchun mahalla, ko‘chalar, maktablarga sharaflil nomlari beriladi. Bunday qo‘yilgan joy nomlari va voqealar bayoni avloddan avlodga o‘tishi uchun biz tilshunos, adabiyotshunoslar va tarixchilarimiz o‘rni beqiyos.

Mirzaxo‘ja qishlog‘ining bosharuvida Isaboy va Berdiboy buvalarning o‘rni beqiyos, qishloq ahlining ishchanligini oshirishda hissalarlari katta bo‘lgan. Bunday inson avlodi bo‘lganimdan faxrlanaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son Farmoni.  
<https://lex.uz/docs/-5512119>

<https://daryo.uz/2019/10/22/shavkat-mirziyoyev-jamoat-joylaridagi-turli-lavha-va-reklamalar-manaviyatimizga-yot-mazmun-va-shakllarda-aks-ettirilmoqda/>

Suyun Qorayev. TOPONIMIKA. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent — 2006

Y.Ahmadaliyev. FARG‘ONA VILOYATI TOPONIMLARI. Farg‘ona-2009

Manoqibi Mavlona Lutfulloh Chustiy "Mavlona Lutfulloh Chustiyning ibratli hayot yo‘li". Qo‘lyozma.

Qo‘qon xonligi arxivi hujjatlari. Qo‘qon o‘lkashunoslik muzeyi yetakchi ilmiy xodimi Muhammad Yaxyoxon Dadaboyev ma‘lumotnomasi asosida.


Farg‘ona viloyati tarixiga oid statistik ma‘lumotlar. Ma‘lumotnoma asosida.

Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanidagi Mirzaxo‘ja qishlog‘i nomining kelib chiqishi haqida MA‘LUMOTNOMA.



<https://fayllar.org/ozbekiston-milliy-universiteti-fakulteti-yonalishi-v12.html?page=6https://;>

O‘zbek tili izohli lug‘ati.apk. 2019-yil.



**Xilola Ro'ziqulova**  
(Erkin ijodkor)



## **Iltijo**

Ich ichimdan to‘kilib ado bo‘laman,  
Bir zunga umidvor fido bo‘laman.  
Kuyingda mayliga ado bo‘laman,  
Ko‘zlarim yoshlarga to‘ldirma nogoh,  
Bolamaga shifo bergil o‘zing Ollox.

Bandasin qo‘liga qaratma yo rab,  
Minnatning nonini yedirma yo rab,  
Hech qachon ilojisiz qoldirdma yo rab,  
Ko‘zlarim yoshlarga to‘ldirma nogoh,  
Bolamaga shifo bergil o‘zing Ollox.

Ojiz bandangman noumid kuymagil,  
Kel shirin joniga ozor bermagil,  
Ozorlaring bo‘lsa mana menga bergil.  
Ko‘zlarim yoshlarga to‘ldirma nogoh,  
Bolamaga shifo bergil o‘zing Ollox.

Munchoqdek ko‘zlari jovdirab boqar,  
Tanamni ming teshib o‘qlarotar,  
Savollar girdobida boshim qotar.  
Ko‘zlarim yoshlarga to‘ldirma nogoh,  
Bolamaga shifo bergil o‘zing Ollox.

Yolg‘onlar to‘qimayman o‘z o‘zimga goh,  
Tunlari sezdirmay chekaman ox.



Barcha yomonlikdan ao‘rayman panox,  
Ko‘zlarim yoshlarga to‘ldirma xayot,  
Shifo ber bolamga o‘zing Ollox.





### **Qurbonova Saodat Ismatqulovna**

Qirg'iziston Qirg'iz shoir va yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan Ona mavzusidagi xalqaro tanlovning gran-pri Oltin qalam diplomi va Chingiz Aytmatov nomidagi ko'krak nishoni sohibasi.



## HAQNI IZLA,HAQNI TOPGIN!

Igʻvolarga nishon boʻlsang,  
Riyokorga kishan boʻlsang.  
Boʻhtonchiga dushman boʻlsang,  
Haqni izla, haqni topgin!

Shaytonga hamnafas boʻlma,  
Miskin qalbga qafas boʻlma.  
Umringni bir nafas bilma,  
Xaqni izla, haqni topgin!

Mansabdorga egilmagin,  
Yetti marta bukilmagin.  
Maqtov boʻlsa - toʻkilmagin,  
Haqni izla, haqni topgin!

Nomaʼqulning taomin yeb,  
Oʻz sirtingga bermagin zeb.  
Har narsani koʻrmagin ep,  
Haqni izla, haqni topgin!

Bu dunyo bir oʻtkinchidir,  
Inson kelib-ketguvchidir.



Adolatga yetguvchi bo‘l,  
Haqni izla, haqni topgin!

Diyonatdan insof gullar,  
Yolg‘on so‘zdan xufton dillar.  
Chohlarga eltmasin yo‘llar,  
Haqni izla, haqni topgin!





**Sardor Nurali**  
(Havaskor ijodkor)



## **Kuzning kunlari**

Yana keladi kuzning kuzning kunlari,  
barglar to'kilib hazon bo'lganda.  
oylar o'tib yillar ham o'tib ,  
quyosh ham bir kun sarson bo'lganda.

yana keladi kuzning kunlari,  
turnalar osmonga qilganda parvoz .  
uzoqlarga uchib yetganda,  
shamollar bizga beradi ovoz.

yana keladi kuzning kunlari ,  
aybdordek boshin egar majnuntol.  
yana keladi kuzning kunlari ,  
borliq haqida suradi hayol.

yana keladi kuzning kunlari ,  
kim ham mendek bo'ladi bedor .  
yana keladi kuzning kunlari,  
kuz ham o'tar qaytadi bahor.

Erkam

Kun-u tun seni o'ylayman ,  
qora ko'zlaring sog'indim erkam .  
bo'ldi qiynama qiynama endi ,  
shirin so'zlaring sog'indim erkam.



yomg'ir yog'sin yog'sin qor ,  
hech biri yo'limni to'saolmaydi.  
men bilaman bilaman ey yor,  
seni mendek hechkim sevaolmaydi.

sen baxtimsan baxtim ertasi,  
sen ko'nqlimsan ko'nqlim erkasi.  
muhabbat go'zal go'zal bekasi,  
kamon qoshingni sog'indim erkam.

ko'changdan o'taman o'taman har kun,  
seni sevaman sevaman har kun .  
sensiz o'tar kunlarim mag'zun,  
sardorim deyishing sog'indim erkam.





**Muhayyo Begaliyeva** 1984- yil 20- martda Farg‘ona shahrida tavallud topgan.

Qozog‘iston Respublikasining „Qo‘sh qanot shoir va yozuvchilar" uyushmasi a‘zosi.

She’rlari respublikaning gazeta va jurnallarida muntazam ravishda joylab boriladi. Ko‘plab xalqaro antalogiyalarida ijodi o‘rin olgan, tinimsiz mehnati tufayli „Xizmat ko‘rsatgan ijodkor", Qahramon ona", „Oltin qiran " ko‘krak nishoni bilan mukofotlangan.



## **Yomg'ir bo'lib ketayapman**

Yana kuzning yomg'irida ketayapman ,  
Yomg'irlarga qo'shilishib yig'layapman .  
Yurak yig'lar ne qilarim bilmayapman ,  
Yig'lab - yig'lab mahsharlarga ketayapman .

Hassasiga suyansa ham mayli otam ,  
Rozi edim yurmasa ham mushfiq onam .  
Yurak - bag'rim parchaladi o'tli nolam ,  
O'ksib - o'ksib qabringizga ketayapman .

Yuzlarizdan yog'ilardi nurlaringiz ,  
Xiralashib toliqsa ham ko'zlaringiz .  
Poyma - poy bo'lsa ham aytgan so'zlaringiz ,  
Sog'inib - o'rtanib , yig'lab ketayapman .

Chidolmayman shum taqdir qiynoqlariga ,  
Yomg'ir bo'lib tushayin tuproqlariga .  
Barham beray , bu ko'ngil firoqlariga ,  
Yomg'ir bo'lib siz tomonga ketayapman .

Tushlarimga kiring holim ko'rmoq uchun ,  
Jigarlarim mehribonmi bilmoq uchun .  
Sog'ingan bu qalbga taskin bermoq uchun ,  
Yomg'irlarda sarson bo'lib ketayapman .



Yo‘qligingiz qabul qilib ko‘nmas yurak ,  
Kecha - kunduz parvonalar ediz halak .  
Gulzoringa kelgan sizmi o‘sha kapalak ,  
Yomg‘irlarda titroq bosib ketayapman ,  
Diydor uchun shoshib - shoshib ketayapman .



## **Zorim onam**

G'urbatlarga to'ldi kunlarim ,  
Hasrat bilan o'tdi tunlarim .  
Sizga muhtoj zor bo'ldim ona ,  
Armon bilan o'tar yillarim .

Tugab borar sabru bardoshim ,  
Sirlarimni sotdi sirdoshim .  
Sizga dardim so'ylayman ona ,  
Malomatga qoldi bu boshim .

G'am - anduhlar boshga tushganda ,  
Qayg'u - alam qalbim ezganda .  
Sizga muhtoj bo'ldim men ona ,  
Bu dunyodan juda bezganda .

Ezg'ilashdi ustimdan tepib ,  
Holim so'rmas jigarlar kelib .  
Jannatlarda kuting siz ona ,  
Ketayapman dunyodan kechib .

Yo'q ekanda sizdek mehribon ,  
Ozorlardan bag'ri, dilim qon .  
Mehringizni sog'indim ona ,  
Sizga etmas butun bir jahon .



Ustozimga .

Men yashardim olis qishloqda ,  
Qahratoni sovuq ovloqda .  
Qo‘llarimiz muzlab yozardik ,  
Ustozlardan mehr olardik .

Kambag‘al edim men nochor ,  
Sumkamda bir burda nonim bor .  
Har tanaffus olardim qo‘lga ,  
Bir tishlardim , to‘yardim shunga .

Dadam kasal uyda yotardi ,  
Ro‘zg‘or yukin onam tortardi .  
Ba‘zan qornim to‘ymasdi nonga ,  
Mo‘ltirardim shu burda nonga .

Yig‘lamoqchi bo‘lardim nogoh ,  
Onam mehrin qo‘msardim shu choq .  
Mehribon qo‘l boshim silardi ,  
Tikilganча ustoz turardi .

„Dadang sog‘mi , mendan salom de ,  
Men to‘ygandim, shuni barin ye."  
Tikildim men ustoz qo‘liga ,  
Taklif qildi ovqat zo‘riga .

„Rahmat " dedim tiqilib asta ,





Ko‘zimga yosh keldi bir pasta .  
„Uyalmasdan egin jon bolam ,  
Uvol axir , tashlasam bolam .

Biz ustozlar ovqatlangandik ,  
Bu kelibdi ne ham qilardik ."  
Yig‘lamoqdan zo‘rg‘a tutardim ,  
Men o‘zimni nochor bilardim .

Yillar o‘tdi o‘qidim , o‘sdim ,  
Bugun elda o‘rnimni topdim .  
Bunga sabab mehribon ustoz ,  
Qo‘llab meni yo‘lga soldi soz .

Har tong sahar umr so‘rayman ,  
Ustozimga sog‘lik tilayman .  
Ustozlarni asrang hayotda ,  
Madhin kuylang doim bayotda .



**RUSTAMOVA BARCHINOY YORQIN qizi.**

2006-yil 14-fevralda Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida tug'ilgan.

Hozirda 34-sonli maktabning 11-sinf o'quvchisi. Birinchi she'riy to'plami "MENING ONAM HAMMADAN YA'XSHI" nomi bilan nashr etilgan.



## **O'LGANIMDA YIG'LAR LOLALAR**

Har faslda ko'rinmas dildor,  
Ramzi erur vafo hamda or.  
Ko'rinadi kelsa gul bahor,  
Sevishimni bilar lolalar,  
O'lganimda yig'lar lolalar.

O'ynab kulsa gar sho'x bolalar,  
Terarkanlar tog'dan lolalar,  
Siz bilmagan mahzun nolalar.  
Chekkanimni bilar lolalar,  
O'lganimda yig'lar lolalar.

Ochilsalar tog'da lolalar,  
Uzib olmang ey sho'x bolalar,  
Gar qolmasa tog'da lolalar.  
Qabrim uzra gullar lolalar,  
O'lganimda yig'lar lolalar.

Otilmoqda ko'ksimdan fig'on,  
Jismimni tark etmoqda bu jon  
Go'zallik faslidan nishon.  
Qadrim bilgan go'zal guljahon,  
O'lganimda yig'lar lolalar

Go'zal kunlar keladi ishon,  
Gar qolmasa mendan nom-nishon,



Bir kun meni eslar lolalar.  
Tog‘-u toshda aytib sherlarim,  
O‘lganimda yig‘lar lolalar.

Yosh qalbimda dardlarim bisyor,  
Ko‘zlarimga dunyo bo‘lsa tor,  
Barchinoyga sodiq, vafodor.  
Bir kun sevgim aylasa xumor,  
O‘lganimda yig‘lar lolalar

**ESLAB QO‘YING**

Har kun bitta Dildoraga dil berasiz,  
Yoningizda parvonadir Nigoralar.  
Quyosh bo‘lib nur sochganda Zarinalar,  
Marjonalar bo‘yniga marjon taqasiz.

Bilsam hamma Muxlisalar muxlis sizga,  
Rayhonalar rayhon sochar yo‘lingizga.  
Gullolalar guncha ochsa qo‘lingizda,  
Barchinoyni eslab qo‘ying, Barchinoyni.

Sizga munis boqib tursa Munisalar,  
Dilingizni shod aylasa Dilshodalar.  
Shahlo ko‘zla boqib tursa Shahnozalar,  
Barchinoyni eslab qo‘ying, Barchinoyni.



Sizga aziz bo‘lib qolsa Azizalar,  
Sevgisini izhor qilsa Lazizalar.  
Sevgingizdan umid qilsa Umidalar,  
Barchinoyni eslab qo‘ying, Barchinoyni.

Zuhraxonlar yulduzingiz bo‘lay desa,  
Sevinchxonlar sevintirib yuray desa.  
Veneralar sayyorangiz bo‘lay desa,  
Barchinoyni eslab qo‘ying, Barchinoyni.

Kalta yupka Natashalar yoqmas sizga,  
Mariyalar qiyo qilib boqmas sizga.  
Sochin o‘rib atlas kiygan shoir qizni,  
Barchinoyni eslab qo‘ying, Barchinoyni.

Nilufarlar iforidan mast bo‘lasiz,  
Fursat o‘tib, kim soxta, kim chin bilasiz.  
Lek u paytda nazarimdan past bo‘lasiz,  
Barchinoyni eslab qo‘ying, Barchinoyni...



## **MEN SEVDIM, MENINGDEK SEVMADI ULAR**

Menga hech yaxshilik qilmadi ular,  
Mening yaxshiligim bilmadi ular.  
Shodligimga sherik bo‘lmadi ular,  
Men sevdim, meningdek sevmadi ular.

Qadrimga yig‘ladim, molimga emas,  
Sevgim yuragimda, tilimda emas.  
Bugun qadrligim yonimda emas,  
Men sevdim, meningdek sevmadi ular.

Ular molimga do‘st, jonimga emas,  
Ular nomimga do‘st, holimga emas.  
Kulfat oralasa yonimda emas,  
Men sevdim, meningdek sevmadi ular.

Bildim mehribonim yagona ekan,  
Beminnat mehribon bu Ona ekan.  
O‘zgalar ne desa bahona ekan,  
Men sevdim, meningdek sevmadi ular.



Mening pok qalbimni ko‘rmadi ular,  
Dunyo deb qadrimni bilmadi ular.  
Sevgimni nazarga ilmadi ular,  
Men sevdim, meningdek sevmadi ular.

Istardim, yuragim sevgiga to‘lsin,  
Olam ham chiroyli, munavvar bo‘lsin.  
Dushmanlarim kuysin, do‘stlarim kulsin,  
Men sevdim, meningdek sevmadi ular.

Sof sevgini tushunmasa netarkan,  
Ey Barchinoy, sevganlaring ketarkan.  
Faqatgina olloh menga yetarkan,  
Men sevdim, meningdek sevmadi ular.



## **QADRI BALAND ONA TILIM**

Sen bor uchun yayrar dilim,  
Sen bor uchun sayrar tilim.  
Sen bor uchun yorug‘ yo‘lim,  
Qadri baland Ona tilim.

Sen bor qalam tutar qo‘lim,  
Gulzor erur o‘ng-u so‘lim.  
Onam berdi, olar o‘lim,  
Qadri baland Ona tilim.

Sen bor uchun g‘amim yo‘qdir,  
Sen bor uchun ko‘nglim to‘qdir.  
Sendan shirin zabon yo‘qdir,  
Qadri baland Ona tilim.

Sen onamga qiyosdiansan,  
Go‘zal va beqiyosdiansan.  
Kuylasam kuyga mosdiansan,  
Qadri baland Ona tilim.

Yurtboshim berdi imkon,  
Har o‘g‘il-qiz kitobxon.  
Seni tan oldi jahon,  
Qadri baland Ona tilim.

Qiyos etdim onamga,





Noming yoyay olamga.  
O'rgatayin bolamga,  
Qadri baland Ona tilim.

Shu jonajon yer sharidan,  
Navoiyning mash'alidan.  
Yangra jahon minbaridan,  
Qadri baland Ona tilim.

Har go'shasi bog'u bo'ston,  
Ona yurtim O'zbekiston.  
O'zbek tilim bo'lsin doston,  
Qadri baland Ona tilim.

Vatanimga posbon bo'lay,  
Tilim -- senga qalqon bo'lay.  
Men ham "Zulfiyaxon" bo'lay,  
Qadri baland Ona tilim.

"QADRI BALAND ONA TILIM",  
Senla olam ochar chiroy.  
Maqtovingga she'r bitadi,  
Shoira qizing BARCHINOY.



**Ro'ziyeva Samiya..**



## Цените родителей....

Ты, жизнь мне, мама, подарила:  
Любовью, лаской одарила.  
Всегда заботилась, любила  
И говорить нас научила.  
Кормила ложечкой меня  
К себе тихонечко маня.  
Твой запах нежный, ароматный,  
Столь изумительный, приятный.  
Твой тонкий голосок и взгляд,  
Твои глаза всегда глядят  
С такой любовью, теплотой,  
Чтоб не забыли мы о той,  
Что год носила нас под сердцем, защищая вас  
От всех невзгод и бед людских,  
От злых сердец и лиц гнилых.  
Она не ела, не пила,  
Всё в дом для чада ты несла.  
И я хочу сказать, друзья,  
Что, главное для нас-семья.  
Наш теплый дом, отец и мать,  
Которых нельзя забывать.  
Заботиться должны о них,  
Ведь жизнь грустна, темна без них.



Порой, как птицы, улетают,  
И маму с папой покидают,  
На произвол судьбы бросают  
Своих родителей больных.  
Когда болел ты среди ночи  
Они, ведь, не сомкнули очи,  
Переживая за тебя-  
За милое своё дитя.  
Когда ты падал, поднимали,  
Всегда с душою понимали.  
Лелеяли и обнимали,  
С заботою нас целовали.  
Любите, радуйте родных,  
Не оставляйте их одних,  
Ведь, жизнь мучительна без них...



**Allayarova Shahzoda Inar qizi** 2013 yil 16-mayda Samarqand viloyati Narpay tumanida tug'ilganman. Hozirda Narpay tumanidagi 55-sonli maktabning 4"B"sinfdagi o'qiyman. 8 yoshimdan boshlab she'rlar yozaman. Ijod namunalari tumanimizdagi "Navqiron Narpay", Respublika gazetalarida "Tong yulduzi", "Bekajon" gazetalarida muntazam chop etilib kelmoqda. 2023 - yil "Tong yulduzi" gazetasida o'tkazilgan "Inson huquqlari bolalar nigoxida" Respublika ko'rik tanlovida faxrli 2-o'rinni egalladim. 2022-2023-yil davomida "G'uncha" jurnalida o'tkazilgan "Yashil makon himoyachisi" Respublika ko'rik tanlovida ham 2-o'rinni egalladim. Yaqinda o'tkazilgan Kamalak yulduzlari Respublika bolalar ijodiyoti festivalining tuman bosqichida qatnashib 1-o'rinni egalladim. Respublika ijodkor yoshlar to'plamlari "Satrlar ifori" hamda "Ummondan tomchi" to'plamlarida she'rlarim chop etildi. Tumanimizdagi "Navqiron Narpay" gazetasining jamoatchi muxbiriman. Onlayn o'tkazilgan tanlovlarda muntazam qatnashib kelayapman.



## **Vatanimni sevaman**

O'zbek ekanligimdan,  
Doim g'ururim baland.  
Mening tug'ilgan joyim,  
Sharq gavhari Samarqand.

Biz baxtiyor, yosh avlod,  
E'zoz ichra yashaymiz.  
Yorug' kelajak tomon,  
Dadil qadam tashlaymiz.

Kitob o'qib, o'rganib,  
A'lo baho olamiz.  
Yurtboshimdek bizlar ham,  
Yurt ishqida yonamiz.

Qo'limda ko'p imkonlar,  
O'z so'zimga egaman.  
Yangi O'zbekistonni,  
Shuning uchun sevaman.



**Shohruh SAMADOV**

(Erkin ijodkor)



## **OTA ONAM HOJI QILSAYDIM**

Orzu yoqgan dilimni,  
Amalda sovutsaydim.  
Ka'ba yuzin ko'rsatib,  
Otam hoji qilsaydim,  
Onam hoji qilsaydim ...

Ziyo bo'lib poyiga,  
Yo'llarin yoritsaydim.  
Eltib „haj"ning joyiga,  
Onam hoji qilsaydim,  
Otam hoji qilsaydim ...

Ularsiz bo'lib men kam,  
Yengib qo'yar qayg'u,g'am.  
Qani endi berib dam,  
Otam hoji qilsaydim,  
Onam hoji qilsaydim ...

Umrimda tarovat bor,  
Jonimda halovat bor.  
Faqat bitta kamim bor,  
Onam hoji qilsaydim,  
Otam hoji qilsaydim ...

Qiblagohim,Jannatim,





Begʻaraz, beminnatim.  
Yetib koʻklarga xatim,  
Otam hoji qilsaydim,  
Onam hoji qilsaydim ...

Derlar dunyo, jamiyat,  
Ota onang gʻanimat.  
Ushalaqolib niyat,  
Onam hoji qilsaydim,  
Otam hoji qilsaydim ...

Ham sharafim, ham shonim,  
Yiqilsam tirkak togʻim,  
Omon boʻlishsin doim,  
Otam hoji qilsaydim,  
Onam hoji qilsaydim ...



## **OTA ONANG DUOSINI OL**

Soxta do‘st, yor, ulfatdan,  
Naf yo‘q hech xushomaddan.  
Kulay desang omaddan,  
Otang duosini ol...  
Onang duosini ol !!!

O‘tginchi ro‘yo, tushlab,  
Yurmagin ko‘ngil xushlab.  
Baxt qushing olda! ushlab,  
Onang duosini ol...  
Otang duosini ol !!!

Tutib shayton tilini,  
Qildan topma qilini.  
Ranjitmada! dilini,  
Otang duosini ol...  
Onang duosini ol !!!

Ularla baxt rivoji,  
Degil: „siz boshim toji“  
Qilda! nuroniy hoji,  
Onang duosini ol...  
Otang duosini ol !!!

Oqizmasdan yoshini,  
Arit armon toshini.



Berib „yuz yosh" oshini,  
Otang duosini ol...  
Onang duosini ol !!!

Bor bo'lsa davlatingdir,  
Yoningda savlatingdir,  
Poyida jannatingdir,  
Onang duosini ol...  
Otang duosini ol !!!

Dildan joy berib to‘rni,  
„Izzat"ga bergin zo‘rni.  
Bilinar hali o‘rni,  
Otang duosini ol...  
Onang duosini ol !!!



## MUNIS ONALAR

Har qancha alyordan a'lo allasi,  
Poyida tiz cho'kar Shoh-u hammasi,  
Eng ulug' zotlarning sara, sarasi,  
Munis Onaxonlar, Munis Onalar ...

Bor yo'g'in ulashar qismasdan himmat,  
Hatto jon bag'ishlar qilmasdan minnat,  
Shul bois oyog'i ostida Jannat,  
Munis Onaxonlar, Munis Onalar ...

Yaxshi yomon kunda birdek yondalar,  
Gar sinsang sen kabi bag'ri qondalar,  
Bolam deb tun-u, kun halak jondalar,  
Munis Onaxonlar, Munis Onalar ...

Yuksalsang yoningda do'st-yor parvona,  
Lek sal\_ga qoqilsang bari begona,  
Bir dalda bo'lguvchi, dardkash hamxona,  
Munis Onaxonlar, Munis Onalar ...

Mehri oftobmisol, ko'kdan taralgan,  
Cheki yo'q, hech so'nmas, ko'pdan yaralgan.  
Azaldan ularga shunday qaralgan,  
„Munis Onaxonlar, Munis Onalar" ...



**Yanglish Nigoh**  
(Serqira ijodkor)



## ХАЗОН

Кузнинг саховатли куёши баргларга олтин ранг улаша бошлади. Майин хавода илиқ бир ҳиссиёт ила жилоланаётган барг елни имлади. Елда жон қолдими, бу ишққа дош беролмай ирғишлади, баргга беланчак ясади. Барг эса бу илтифотдан ўзини унитаёзди, елга қўшилиб, кўнгил майлига эрк берди, узоқ ракс тушдилар, сўнг барг елга бутунлай ихтиёрини топширди, банди шохдан узилиб кетганини ҳам сезмади. Ўз мувозанатини йўқотган баргни кўтаролмаган ел уни қўйиб юборди. Барг ерга юзтубан тушди, ер бағирлаб уча-уча тупроққа қоришиб, юзи қора бўлди, бағрини ердан кўтара олмай қолди. Борган сари гавдаси ўзига оғирлик қилар, у хазонга айланган эди. Энди қанчалик интилмасин, ел ундан ўзини олиб қочарди.

Барг оёқлар остида тепкилана-тепкилана аламзадага айланди. Уни бошқа хазонларга қўшиб супириб тўпладилар, ёқдилар. У тутаб захри қотилликка журъат этди. Қуюндай кўзғалиб, елнинг ортидан чопди. Ел инсон болаларининг ортига яширинди. Тутаётган аламзада хазон барг болаларни бўға бошлади...

Огоҳ бўлинг, одамлар, хазонлари ёқманг, у ҳам тирик жон, кўнгил майлига берилиб, сўнг аламзадага айланган тилла барг, уни фақат она ер хушига келтириши, кучини яхшилик ва яратувчанликка йўналтира олиши мумкин. Кўминг, чунки у момо ер тагидан елни учратмайди, ўйноқлаб ғашига тегишидан маълум вақт тинчланади ва тақдирга тан беради...

Тўйдигул ҳар хил ўйлар билан яна бандидан узилиб, ер билан битта бўлиб ётган хазонларни тўплаб, томорқанинг бир чеккасида кўмди. Кўмса ҳам кўнгли тинчийвермади. У ерга яқинлашди, деганидан фарёд эшитилгандай бўлаверди.

Бир куни беихтиёр кўмган жойини очди. Очдию, ханг-манг бўлиб қолди. Ҳазонлар ростдан ҳам фарёд чекарди, бағирлари илма тешик бўлиб кетган, устиларида майда қуртлар ғужғон ўйнарди.

Ўзининг қалбини ҳам шу қуртлар каби ғам кемирарди. Бой берилган бахтини, тан олинмаган севгисини ёдга туширди. Ахир йўқолган игна ҳам, "эрингга тегиб оламан" деб қидирилса, тез топилади-ку, ёш жувонга бу қисматни қабул қилиш осонми?

Ўзи кўнгил бергани учун, эрининг кўнгли бошқада эканлигини сезмабди ҳам. Ҳар бир ҳатти-ҳаракатини чин дилдан қабул қилди, унга ишонди, дўстим, ҳамкасбларим, деганларига эркин қўйиб берди, то уйига келиб олиб, ҳаётининг тенг ярмига эга чиққуничаям, муносабатларини тўғри тушунди. Суюкли, қонуний эри ўзига эмас, ноқонуний кундошига фарзанд ато этганида ҳам ўзини айблаб, уларни кечирди.

Энди эса бола кўзга кўриниб, ҳовлини тўлдирганида, хазон бўлаётган умрига ачина бошлади. Бола баҳона эри кундошининг пинжигга тобора кириб борар, Тўйдигулни эса бутунлай унутаёзганди.



Тўйдигулнинг кўзига кундош эмас, унинг боласи бало-казодай кўриниб борар, пайт пойлаб, силкилаб-силкилаб, чимчилаб-чимчилаб олар, ўпиш баҳона тишлаб озор етказишга уринарди.

Ўзига бўйсинмаётган ички қора куч, фақат болага ёмонлик қилишга ундарди.

Гўё шу бола йўқ бўлса, суюклиси ўзига қайтиб келадигандай.

Тол тагидаги беланчакда пишиллаб ухлаётган боланинг устига ёстикни бостириб кўйган Тўйдигул бу билан ҳам қоникмади. Пашшахонанинг осилиб турган тўрт бурчидаги ипларнинг аввал бири, кейин иккинчиси ечиб, бўшатиб кўйди. Шоша-пиша беланчакни пашшахонага ўраб ташлади. Қандай келган бўлса, шундай чаққонлик билан беланчакдан узоклашди. Талвасада дарвозадан чиқиб, тезда ғойиб бўлди.

Боласи безовта бўлавермаганидан юмушларини охирига етказиш илинжидаги кундош жувон томорқада узок қолиб кетди, иссиқхонадаги кўчатларни тартибга келтириб, устунларга осиб боғлашни ниҳоялатиб чиққандан кейин ҳам нимагадир беланчак томонга қайрилмади ҳам, ғафлат босди, ғафлат. Боланинг йиғи овози келавермаганига ухляпти, деган хаёлда эди....

Қотилни кўзи фош қилади, дейдилар. Тўйдигулнинг бежо кўзлари учраганларни шубҳага сола бошлади. Ўзи ҳам пойинтар-сойинтар, кундошнинг боласидан гап очавергани ёнидагиларга ғалати туюлди.



**Kamola Mustayeva**

2004-yil Sirdaryo viloyatida tuğulgan , hozirgi kunda Buxoro davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2- bosqich talabasi





### **Meni she'rlarimdan izlagin...**

Otashman òzini òzi yoqquvchi,  
Yoqib qòyib sòngra kòkka boqquvchi,  
Sòzimga tushunmay hayron bòlmagin  
Tushunmoqni istab òyga tolmagin,  
Shunchaki kel  
Va meni men yozgan she'rdan izlagin...

Sevgi, xazonrezgi bòlgan pallada  
Yaxshisi hech qachon meni sevmagin,  
Yuragimga buyurib bilmayman desang  
Shunchaki kel  
Va meni ma'nosiz she'rdan izlagin...

Hayot niqob tutgan tuğulganimdan,  
Besh kunlik umrimdan, meni topmaysan,  
Garchi besh daqiqa yetadi desang,  
Shunchaki kel  
Va meni tòrt qator she'rdan izlagin...

Kuzga bor, gar meni topmoq istasang  
Undan boshqa bari yolğon men uchun,  
Chinorman barglari uzilgan tizgin,  
Va shunchaki meni she'rdan izlagin...

Haqiqiy Zulfiyalar yig'ilgan bunda ...



Xazon yo'rg'alamas bog'lar bor bunda,  
Bahor ham abadiy qolmoqni istar,  
She'r kuylashib, biri biridan o'zar ,  
Haqiqiy Zulfiyalar yig'ilgan bunda...

Hayotning ilmiga qofiya bog'lar,  
Qalblarida iymon , hidoyat borlar,  
Barchasin yuzida quyoshi porlar ,  
Haqiqiy Zulfiyalar yig'ilgan, bunda...

Qalbingiz yonsa gar bitta she'r so'rang,  
So'z yomg'iri-la ming dardni chayar,  
Yettinchi osmondan tushasiz arang,  
Shundayin, Zulfiyalar yig'ilgan bunda...



## **Nega buncha kuzni sevding dil...**

Hislaringni shamollar qildiku xazon,  
Buncha kòp òzingga ozor berding dil,  
Yuragingni toptab , yoğdi ustingdan ,  
Nega kuzni buncha sevding dil.

Qishning ziynatiga sotilar bir kun,  
Sòngra qahratonda qolib ketasan,  
Shamol qahrigacha bòlgan xazondag,  
Daraxtni òzingdan ozod etasan.

Yomğirga kòksingni tutasan mahzun,  
Va yerda kòklarga nido etasan,  
Tongi shudring ila sanab gunohing  
Kuzni sevganingni anglab yetasan.

Dilim, bir qaragin endi holingga ,  
Ġamlarning dastidan pora-porasan,  
Xatoyingni bilib , ranging sarğayib ,  
Allohimdan òzga kimga borasan.

Nega bunchalar ham kuzni sevding dil...



**Mohlaroy Nomonjonova**

(Yosh ijodkor)

FarDu akademik litseyida tahsil olmoqda



### **Onajonimga she'r**

Ona, onajonim, mana, yana men  
Sizning quloqsiz, "mehriboningiz"  
Keldim, yoningizga bilib qadringiz  
O'sha "hushyor" va "suyanchig'ingiz".

Ona, onaginam, faqat yig'lamang,  
Bugun sizning kuningiz, jilmaying, qani..  
Bizlarni buguncha g'amimiz yemang  
O'zingizchun bir kun yashang-chi, qani

Ona, jonim onam, mehribon onam  
Sizga boqib meni-da ko'zlarimda nam.  
Ayting, nima yeysiz, nima oberay,  
Faqat "o'zing yegin, bolam" deb aytmang.

Ona, onajonim, validam meni,  
Jannatdan nishona gulim, farishtam.  
Betobligida ham doim sarishtam.  
Dunyoga alishmas yagonam meni.

Onajon, jon onam, boshimni silang  
Bag'ringizda bugun orom olayin.  
Sog'inibman mehrlil quchoqlaringiz  
Axir qumsadim-da, issiq bag'ringiz.

Ona, onajonim, qarang men bugun



Sizga bag'ishlab ash'orlar bitdim.  
Bugungi tavallud kuningiz uchun  
Butun hayotimni bir eslab titdim.

Onam, onajonim, yig'lamang faqat  
Yetmadimi, shuncha to'kkan ko'z yoshlar.  
Azob-uqubatga qildingiz toqat  
Sabringiz tog'lar-u, qirlardan oshar.

Onam, onaginam, rayhonim meni  
Sarviqomat, gul ruxsorim meni.  
Dardimga yagona darmonim meni  
Onam, onajonim, Gulnorim meni.



**Xurmatoy UMAROVA**  
(Erkin ijodkor)



## **Turnajon.**

Tizilishib o‘tgan turajon,  
Uzoqlarga yetgan turnajon.  
Olib ketinr meni ham birga,  
Manziliga ketgan turnajon.

"Cadoqat" Deb atalgan darsda,  
Tolibingiz bo‘lay men o‘zim.  
Do‘stni tawlab ketmaslikni ham,  
O‘rganayin bersina to‘zim

Saboq olay hayotingizdan.,  
Yorim meni bjr umr kutsin.  
Rayhon unsin qanotingizdan,  
Iforlari samoni tutsin.

Olislarga ketgan turnajon,  
Manziliga yetgan turnajon.  
Olib keting Hurmatingizni,  
Bir ko‘rsating ximmatingizni.maktub.  
Bir paytlar owiqlar bari,  
Bitar edi ajib maktublar.  
Dil izhorin etardi noma,  
Yawirincha o‘qirdim tunlar.

Har bittasi o‘zgacha edi,  
Yozmiwlari o‘zgacha edi.





Beparvoroq edim negadir,  
Qani yurak o‘r tansa edi.

Parcha-parchs etardim uni,  
Nomard yigitlardan to‘yganman.  
Xabaring yo‘q, faqat sen bitgan,  
Maktubingni saqlab qo‘yganman.



## **Bilsaydim**

Unutmoqni bilsaydim men ham,  
Unitardim ismingni erkam.  
Yot bo‘lsaydi menga ham sog‘inch,  
Yawar edim betawviw, bekam.

Muhabbatsiz yaway olsaydim,  
Ezilmasdi sarsona ko‘nglim.  
Lek bularsiz yawamoqlikdan,  
Afzal mendek woirga o‘lim.



**Umirova Mohinur Mirzo qizi**

2005- yil 26- iyunda Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida tug‘ilgan. Hozirda Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2- bosqich talabasi.



## **Shahrisabz davlat pedagogika instituti**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich

talabasi **Umirova Mohinur Mirzo qizi**

### **Muhammad Yusuf ijodining badiiy tahlili**

Annotatsiya : Muallif ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ijodini badiiy jihatdan tahlil qiladi .

Kalit so'zlar: Vatan , ona , she'r , muhabbat , sog'inch .

Adabiyotimiz osmonida yo'lchi yulduzdek porlagan shoir Muhammad Yusufning ijodi o'ziga xos o'ringa ega. Bir so'z bilan aytganda Muhammad Yusufni ona vatan kuychisi desak mubolag'a bo'lmaydi. Muhammad Yusuf she'rlarida vatan madhi, ona madhi go'zal o'xshatishlar bilan tasvirlanadi. Shoir ijodida so'zga bo'lgan mehr, she'riyatga bo'lgan muhabbat ufurib turadi. Uning she'rlarida insoniyatga aloqador ezgu xislatlar, savob amallar yuqori darajada ulug'lanadi. Shuningdek shoir she'rlarida insonni hayotda faollikka , uyg'oqlikka undovchi misralar ham talaygina . Bir she'rida shunday satrlar bor .

Mudroq bosgan dilim ,

Aytaman bir sir ,

Tangri uyquni -da ,

Pallada tortar ,

Uyqu – ham

Nasiyaga berilgan umr,

Uyqung ortgan sayin ,

Qarzing ham ortar .

Har bir inson hayotda ham ruhan , ham jismonan hamisha uyg'oq bo'lishi lozimligi she'rda aks etgan . "Uyqu - ham , nasiyaga berilgan umr" quyidagi jumalarga e'tibor bersak , uyquni nasiya tariqasida berilgan umrga qiyoslash go'zal o'xshatish hisoblanadi . She'rning har bir misrasida olam -olam ma'no bor . Shoir demoqchi -ki agar inson qimmatbaho vaqtini , oltindan -da qimmat umrini bekorchilikda va tayinli maqsadsiz o'tkazsa , u yuqori natijalarga erisholmasligi , orqaga ketishda davom etishi mumkin . Shoir ushbu she'ri orqali barchani uyg'oqlikka da'vat etadi . Muhammad Yusufning "Vatanim " nomli she'ri shoir ijodida o'ziga xos o'ringa ega. Ushbu she'r san'atkorlarimiz tomonidan ham go'zal tarzda ijro etilgan . Muhammad Yusufning "Vatanim" she'rida uzoq o'tmishdagi tarix ham gavalantiriladi . Ajdodlarimizning ozodlik uchun , yurt tinchligi uchun ko'rsatgan jasoratlari , tantanavor ruhda ulug'lanadi .



Kim Qashqarni qildi makon ,  
Kim Enasoy tomonda,  
Jaloliddin -Qurdistonda ,  
Boburing - Hindistonda  
Bu qanday yuz qarolig‘ deb ,  
Yotarlar zimistonda ,  
Tarqab ketgan to‘qson olti,  
Urug‘imsan Vatanim .....

Vatan uchun jonini fido qilgan bobolarimiz , hamisha qalblarda mangu yashaydi . Muhammad Yusufning ushbu she'ri kishini ona vatanini yanada sevishga , ardoqlashga undaydi .Shoir she'rlarida so‘z qo‘llash mahorati , noodatiy o‘zgachalik yaqqol sezilib turadi . Muhammad Yusufning "Vatanim " she'rida vatanga muhabbat hissi juda sodda va samimiy ifoda etilgan .Shoir o‘z ona vatanida o‘zgacha mehrni his qiladi .Vatan mehrini , oftobning nurlaridan -da iliq deb hisoblaydi .Vatanni shoxlari osmonga tegib turgan chinorga qiyoslaydi . Bilamizki "Shoxlari osmonga tegib turgan chinor " yer yuzida mavjud emas .Lekin shoir she'rda go‘zal o‘xshatishni mahorat bilan qo‘llagan .

Muhammad Yusufning " Onaizor " nomli she'ri ham tahsinga sazovordir .Shoir ushbu she'rida onalarni madh etadi .Mazkur she'rda ta'sirchanlik juda yuqori .Kishi she'rni o‘qiganida beixtiyor ko‘zlarida yosh qalqiydi.Onalarimiz ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Tonar bo‘lsa qo‘limdagi tor dunyo,  
Uch kun o‘tmay , unutgay do‘st yor dunyo ,  
Yer-u ko‘kni titratib zor -zor dunyo ,  
Onam yig‘lar , onam yig‘lar , onam - u .

She'r 11 bo‘g‘inlik tizimda yozilgan . "Tor " , " do‘st-yor" , "zor-zor" so‘zlari qofiya vazifasini bajargan .Go‘zal o‘xshatishlar natijasida she’r yanada go‘zallashgan .She'rda do‘st-yorlar ham kun kelib seni unutishi , seni tashlab ketishi mumkinligi aytiladi .Lekin ona , hech qachon bolasini yolg‘izlatmaydi .Og‘ir kunlarida ham unga dalda bo‘ladi .Shoir yana quyidagi misralarni ham keltiradi .  
Qolar bo‘lsam bir kun axir tildan ham. Onam  
yig‘lar onam yig‘lar onam - u . Shoir demoqchi  
-ki yillar o‘tib sizni insonlar unutishi mumkin , lekin birgina onangiz sizni har damda eslaydi . Qiyinchiliklarga duch kelganingizda ham , faqatgina onangiz sizga tirgak bo‘ladi . Muhammad Yusufning "Onamga xat" deb nomlangan she'ri ham shoir ijodida o‘ziga xos o‘ringa ega.Ushbu she'rdan quyidagi parchani keltirsak :



Boshimdan o'tgani ko'kka ham ayon ,  
Yulduzlar qiqirlab kular oqbadan ,  
Men -zangor yaylovda olis , bepayon ,  
Uyuridan ajrab qolgan qulunman .

She'rdagi misralarga e'tibor bersak , shoirning musofirlikda boshidan kechirganlari , nafis o'xshatishlar vositasida aks ettirilgan. Shoir o'zini "Bepayon yaylovda uyuridan ajrab qolgan qulunga " qiyoslaydi . O'zi tug'ilib o'sgan qishlog'ini , keng dalalarini qumsayveradi . Darhaqiqat, har bir inson o'zi tug'ilib o'sgan makonini , qadrdon go'shasini dunyolarga alishmaydi . Muhammad Yusufning ushbu she'rida soginch hissi aks etgan desak adashmagan bo'lamiz . Shoir o'zida his qilgan barcha tuyg'ularni , onasiga maktub tarzda bayon etadi .

Muhammad Yusuf ijodi haqida soatlab gapirsak ham nihoyasiga yetolmaymiz . Har bir she'ri o'zgacha tarzda yozilgan. She'rdagi boy ma'no , go'zal o'xshatishlar kishini hayratlantiradi . Muhammad Yusuf ijodi adabiyotimizda yuksak o'ringa ega . Shoir so'z qo'llashda , nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashadi . Shoir Muhammad Yusuf she'rlari o'zbek xalqi qalbiga abadiy muhrlangan desak adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

Muhammad Yusuf she'riy to'plamlari



Всероссийский информационно-образовательный  
портал «Магистр»

12+  
Творческая коллекция

**Toshtemirov Behruz**

# **MEN IZLAGAN IJDOKORLAR**

**Председатель оргкомитета:** Ирина Фёдоровна К.

Email: [metodmagistr@mail.ru](mailto:metodmagistr@mail.ru)

Тел. редакции: +7 923 606 2950

**Главный редактор:** Вознов Александр Сергеевич

Email редакции: [magistr-centr@magistr-r.ru](mailto:magistr-centr@magistr-r.ru)

**Информационно – образовательный ресурс**

**"Магистр":** Елена Владимировна В.

Email: [magistr-centr@mail.ru](mailto:magistr-centr@mail.ru)

Сетевое издание «Магистр»

СМИ Серия ЭЛ No ФС 77 – 75609

от 19.04.2019 г.

(Р ОСКОМНАДЗОР , г. Москва)

ИНН 4205277233

ОГР Н 1134205025349

